

## BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIDA CHET TILLARIGA QIZIQISHNI UYG’OTISH UCHUN SAMARALI METODLAR

Sattarova Dilfuza Maxmudovna

*Toshkent shahar Olmazor tumani 29-umumiy o’rtta ta’lim maktabi boshlang’ich sinf o’qituvchisi*

### Annatotsiya

*Bugungi kun ta’lim tizimida chet tillariga berilayotgan e’tibor har kungidan kuchli. Yoshlarimizning chet tili o’rganishga bo’lgan ishtiyoqlari ham ancha ortganligi hech kimga sir emas, albatta. Mazkur maqolamiz aynan shu haqida, ya’ni boshlang’ich sinflardan boshlab o’quvchilarini chet tiliga qanday qiziqtirish mumkin, bu borada dars davomida qanday metodlarni qo’llash ko’proq samara beradi, aynan shular haqida atroflicha ma’lumot berishga harakat qilamiz.*

### Abstarct

*Today’s education system pays more attention to foreign languages than ever. It’s no secret that our young people’s passion for learning a foreign language has increased. This article is about this, that is, how to get students interested in a foreign language from the elementary grades, what methods are more effective in this regard, we will try to provide detailed information about this.*

### Аннотация

*Сегодняшняя система образования уделяет больше внимания иностранным языкам, чем когда-либо. Ни для кого не секрет, что страсть нашей молодежи к изучению иностранного языка возросла. Об этом данная статья, то есть о том, как заинтересовать школьников иностранным языком с младших классов, какие методы в этом плане более эффективны, мы постараемся дать об этом подробную информацию.*

### Kalit so’zlar

*pedagog, boshlang’ich ta’lim, zamonaviy metod, qiziqarli o’yin*

Bugungi kun jamiyatimizda chet tiliga bo’lgan e’tibor kundan-kunga oshib bormoqda, bu hech kimga sir emas albatta. chet tilini o’rganish bugungi kun “davr talabi” desak aslo mubolag’a qilmagan bo’lamiz. Yoshlarning chet tillariga bo’lgan qiziqishlari ham kundan-kunga oshib bormoqda, ilgarilari bitta chet tilini bilgan insonni ko’rganimizda unga havas bilan qaragan bo’lsak, hozirgi kunda yoshlar orasida 2 ta tilni bilish odatiy holatga aylandi, ya’ni bu hech kimni ajablantirmay qo’ydi. Bularning barchasi mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning yorqin misolidir. Biz hozir bermoqchi bo’lgan ma’lumotlar ko’proq boshlang’ich sinf o’quvchilariga tegishli bo’lib, ularni chet tillariga qanday qiziqtirish mumkin, shular haqida gaplashamiz.

Boshlang’ich ta’limdagi eng asosiy va ijobjiy o’zgarishlarga sabab bo’lgan qarorlardan biri bu O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarini o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida” PQ-1875-sonli

qaroridir. Ushbu qaror asosida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o’rganish umumiy o’rta ta’lim maktablarining 1- sinflarida o’yin tarzidagi darslar va og’zaki nutq darslari shaklida 2-sinfdan boshlab esa alifbo, o’qish, yozish va grammatikani o’qitish bosqichma-bosqich boshlanadi.

Boshlang’ich sinflarni o’qitish yuqori sinflarni o’qitishdan ancha farq qiladi. Ushbu sinflarda pedagogdan sabr, tashabbuskorlik va kreativlik talab qilinadi. Agar pedagog mahoratl bo’lsa, jajji bolakay qalbida tilga bo’lgan muhabbat uyg’onadi va o’rganishi ham ancha oson bo’ladi. Chunki bu yoshdagi o’quvchilar ko’proq o’yinqaroq va ularni darsda zeriktirmasdan olib o’tirishning o’zi katta mahorat talab qiladi. Hech kimga sir emaski, boshlang’ich sinflar ma’lumotlarni tushunib emas, mexanik tarzda yaxshiroq yodlaydi. Shuning uchun ularga chet tilini o’rgatishda grammatik tushunchadan boshlamaslik zarur. Chunki bolani til o’rganishga bo’lgan qiziqishi susayishi va uni charchatib qo’yishi mumkin. Boshlang’ich sinflarga chet tilini o’rgatish juda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan boshlang’ich sinflarga chet tilini qiziqarli, esda qolarli o’tish uchun quyidagi samarali, innovatsion va takrorlovchi mashq, aralash texnika metodlaridan foydalanish mumkin:

□ She’r va qo’shiqlar orqali

Bunda o’qituvchi kompyuterda qo’shiq qo’yib beradi va uni bolalar bilan birgalikda qaytaradi;

□ Aralash texnika orqali

Bunda kompyuterda ko’rganlarini bajarish, rasm chizish, o’yin o’ynash, turli harakatlar orqali metod bajariladi.

□ So’zning oxirgi harfiga so’z davom ettirish

Yangi so’zlar esda qolishi uchun o’qituvchi o’zbek tilida so’z aytadi o’quvchilar ingliz tiliga tarjima qilib bir qadam oldinga yuradi, kim o’qituvchining oldiga birinchi yetib kelsa o’sha g’olib hisoblanadi;

□ Daraxtlarga mevalar yasab, mevalar ortiga mavzuga oid so’zlar rasmini chizish orqali

Bunda o’quvchilar mevalarni oladi va orqasida yashiringan rasmni pantomima orqali ko’rsatadilar qolgan o’quvchilar esa buni topishadi, ushbu usul darsning kulgili va qiziqarli bo’lishiga sabab bo’ladi.

Bundan tashqari dars davomida quyidagi metodlarni ham qo’llash mumkin.

□ “Daraxt” metodi

Bu metod, asosan, dars davomida o’yin tarzida olib boriladi. Katta oq qog’oz (plakat) ga chiroyl daraxt rasmi chiziladi. O’quvchilarga esa gullarga savollar yozib tarqatiladi yoki mevalarga savollar yozish ham mumkin. So’ngra o’quvchilar savollarga to’g’ri javob berishsa, o’sha gulni (mevani) daraxtgaga yopishtirishadi. Shu tariqa o’quvhilar o’zlarining “bilim daraxti” ni yasashadi.

□ "Clean blackboard" o`yini

Bu o’yin kichkintoylarimiz uchun juda qiziq bòladi. Doskaga o’yin uchun yetarli miqdorda bo`g’inlar yozamiz, lekin so`zning o`zini emas, o`quvchilar esa tezkorlik va aniqlik bilan berilgan bo`g’indan ingliz tilida mano anglatadigan yangi so`z hosil qilishadi. Yangi topilgan so`z yozilgach, o’sha so`zning bo`g’inini o`chirib tashlaymiz. qaysi guruhning tarafida ko’proq bo`g’inlar o`chirib so`zga aylantirilgan bolsa, o’sha taraf g’olib bòladi. Bu

usul òquvchilarda aqlni charxlash, xotirani kuchaytirishdan tashqari, mavzudagi yangi sòzlarni yaxshiroq òrganishga yordam beradi.

□ "Quvnoq topishmoqlar" (Merry Riddles)

O'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar.

□ "Tezkor javob" (Quick answers)

Ushbu metod o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tillarini o'qitishda oson, sodda, rang-barang va qiziqarli metodlardan foydalanish zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YAXATI:**

- Turdaliyeva G.N "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar"///2020
- Toliboboyeva Sh."Ingliz tilini o'qitishdagi zamonaviyta'lim texnologiyalari"/Young scientist.19,(309)2020
- Passov Ye.I. Kommunikativniy metod obucheniya inoyazichnomu govoreniyu . M.: Prosveshenie , 1991
- Xoshimov O'. Yoqubov I. Ingliz tili O'qitish metodikasi. T., -2003